

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Aksiyadorlarining navbatdagi yillik
umumiy yig'ilishining
2025-yil “24” iyun dagi
4-sonli bayonnomasi bilan

Yig'ilish raisi

B. Radjabov



**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
“Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida”gi
Nizom
(yangi tahrirda)**

“MA'QULLANGAN”

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2025-yil “25” iyun dagi 20-sonli bayonnomasi bilan
Kuzatuv kengashi raisi

B. Zaxidov



Boshqaruvining
2025-yil “25” iyun dagi 101-3-sonli qarori bilan
Boshqaruv raisi v.b

O. Butayev



Toshkent – 2025-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinlarda – Bank) Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi maqomini belgilaydi va uning ishini, uni o'tkazish va qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.

2. Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari, "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari hamda Bank Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bankning yuqori boshqaruv organidir.

4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Bank Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Bank Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

5. Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi odatda har yili iyun oyining 1-sanasidan 30-sanasiga qadar o'tkaziladi.

6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Bank Kuzatuv kengashini saylash to'g'risidagi, Bank Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Bankning yillik hisoboti va boshqa hujjatlar ko'rib chiqiladi.

7. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi.

8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

9. Bankning barcha aksiyadorlariga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar bir xil munosabat ta'minlanadi.

10. Bank Davlat nomidan ishtirok etayotgan aksiyadorlar bilan birgalikda boshqa aksiyadorlarning qonunchilikda beligilangan huquqlarini tan olishadi, ularning ushbu huquqlarini himoya qilish choralarini ko'rishadi, shuningdek boshqa aksiyadorlarning qancha ulushga ega ekanliklaridan qat'i nazar bir xil munosabat ta'minlashadi.

11. Aksiyadorning vakili aksiyadorlar umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha aksiyadorning o'zi bilan kelishgan holda qatnashadi va ovoz beradi. Bunda kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini aksiyadorning o'zi bilan kelishish aksiyadorning vakili tomonidan ularga qulay ixtiyoriy shaklda amalga oshiriladi. Aksiyador va uning vakili o'rtasidagi munosabat, shu jumladan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar

bo'yicha ovoz berish tartibini kelishish, Bank ishtirokisiz va qonunchilik asosida tartibga solinadi.

12. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi minoritar aksiyadorlarning qonunchilikda va Bank Ustavida belgilangan o'rni va huquqlari cheklanilishiga yo'l qo'ymaydi, shuningdek aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar, jumladan yirik bitimlar tuzish bo'yicha maslahatlar o'tkazilishini tashkil etadi.

13. Bank aksiyalari Bank Ustavining 7.17.1 va 7.17.2-bandlarida belgilangan talablar buzilgan holda olingan taqdirda, aksiyalarning egasi bunday bitim tuzilgan kundan e'tiboran aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berishga, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni va o'tkazishni talab qilishga, kun tartibiga masalalar kiritishga, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolariga nomzodlar ko'rsatishga, shuningdek bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga haqli emas.

14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish chog'ida umumiy yig'ilishda, kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilishi mumkin. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va masofadan turib elektron ovoz berishning umumiy tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

2-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari va qaror qabul qilish tartibi

15. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bank Ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

Bankni qayta tashkil etish;

Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

Bank Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Kuzatuv kengashi a'zolariga haq (mukofot) va kompensatsiyalar to'lash;

e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish;

o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;

Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash va unga o'zgartirish kiritish, Boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash) va Boshqaruv raisining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi, "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi "Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizomlarini va vakolat doirasida boshqa ichki hujjatlarini (qoidalarini) tasdiqlash;

Bankning yillik hisobotini, shuningdek Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

Bankning foydasi va zararlarini taqsimlash;

Bank Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Bank Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

aksiyadorlarning Bank aksiyalari yoki boshqa qimmatli qog'ozlarini olishga doir imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

Kuzatuv kengashining tavsiyasi bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qarorni qabul qilish, ularning miqdori va aksiyalarning har bir toifasi va turi bo'yicha to'lov shakli va tartibini belgilash;

Boshqaruvning affillangan shaxslar bilan bitimlar va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun Bankning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash;

aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan Korporativ boshqaruv Kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv Qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

homiylilik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatishni (olishni) qonunchilikda belgilangan doirasini inobatga olgan holda miqdorini belgilash orqali va bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etish sharti bilan, Bank Kuzatuv Kengashiga homiylilik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash vakolatini berish;

Bank biznes-jarayonlari va loyihalarini Bankning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish uchun mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilish;

sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Bank boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;

Bankning "Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi va "Ichki nazorat to'g'risida"gi Nizomlarini tasdiqlash;

Bank mansabdor shaxslariga Korporativ boshqaruv Kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv Qoidalari tavsiyalariga rioya etmaganlik yoki ushbu Kodeks va Qoidalarda nazarda tutilgan axborotlarni oshkor etmaganlik uchun javobgarlik chorasini o'rnatish;

Bank Boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash va ularga o'zgartirish kiritish;

Bank Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarining (KPIning) yillik natijalarini ko'rib chiqish;

qonunchilik, Bank Ustavi va mazkur Nizomda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

16. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bankning Boshqaruvi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

17. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bankning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, quyidagi masalalar bundan mustasno:

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning Boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash), Boshqaruv raisining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha quyidagilar ovoz berish huquqiga ega bo'ladi:

Bankning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Bankning imtiyozli aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar.

19. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar qonunchilikda, Bank Ustavida va ushbu Nizomda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, yig'ilishda ishtirok etayotgan Bank ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

20. Mazkur Nizomning 15-bandi ikkinchi-to'rtinchi, oltinchi, o'n uchinchi, o'n sakkizinchi va o'n to'qqizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning to'rtinchi uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

21. Ushbu Nizomning 15-bandi ikkinchi va yigirmanchi xatboshilarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan faqat Kuzatuv kengashining tavsiyasiga binoan qabul qilinadi.

22. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga Bank ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

23. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

Bankning Boshqaruviga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash hamda Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalar Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritiladi.

24. Agar aksiyador uzrli sababga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

25. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari amaldagi qonunchilikda, Bank Ustavida va ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda, ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

3-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi.

Aksiyadorlarni va ularning vakillarini ro'yxatdan o'tkazish

26. Aksiyadorning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi, dividendlar olishi va Bank tomonidan korporativ harakatlar bajarilganda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishi Bank aksiyadorlarining reyestri asosida amalga oshiriladi.

27. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 3 (uch) ish kuni oldin shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

28. Bank aksiyadorlarining reyestriga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, mazkur reyestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reyestrni shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan hollar bundan mustasno.

29. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aksiyadorlar ro'yxatiga kiritilgan, umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar, ularning vakillari, Bank auditori (tashqi auditor va ichki audit xizmati hodimlari), Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari qatnashish huquqiga ega bo'ladilar (Bank Kuzatuv kengashiga saylash bo'yicha ovoz berish byulleteniga kiritilgan nomzodlar ham taklif etilishlari mumkin).

30. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi.

31. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

32. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakillari yig'ilish o'tkazish to'g'risidagi xabarda ko'rsatilgan joy va vaqt bo'yicha ro'yxatdan o'tishlari kerak.

33. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashish uchun ro'yxatdan o'tkazish jismoniy shaxslar bo'lgan aksiyadorlarni pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa xujjat asosida, ularning vakillarini esa notarial tasdiqlangan ishonchnoma va vakilning shaxsini tasdiqlovchi xujjati asosida amalga oshiriladi.

34. Bank aksiyadori bo'lgan yuridik shaxs rahbari yuridik shaxs nomidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishida hech qanday ishonchnomasiz ishtirok etadi.

35. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma'lumotlar) bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan holda beriladi.

36. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan reyestr asosida qayd etish ro'yxati tuziladi. Qayd etish ro'yxati risola xoliga keltirilgan, tartib raqami qo'yilgan, ip o'tkazib tikilgan va sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

37. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd etish ro'yxatiga imzo chekadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestri bo'yicha belgilangan o'ziga tegishli ovoz beruvchi aksiyalari doirasida ovoz berish uchun byulletenlar to'plamini oladi.

38. Agar yig'ilish qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorlarning manfaatlarini ifodalash uchun ishonchnoma taqdim etsa, u xolda ushbu yig'ilish qatnashchisiga u vakillik qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) nomidan ovoz berish uchun byulleten (byulletenlar) beriladi. Ro'yxatdan o'tkazish paytida u vakillik qilayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga "___ ta (soni) ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha "___" "___" yilda berilgan ___-sonli ishonchnoma" degan yozuv qayd etiladi xamda vakilning familiyasi, ismi otasining ismi ko'rsatiladi.

39. Aksiyalarning nominal saqlovchisi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida aksiyador tomonidan berilgan ishonchnoma bo'yicha qatnashishi mumkin.

40. Bank aksiyalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun reyestr tuzilgan sanadan keyin va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi sanasigacha joylashtirilgan hollarda Bank aksiya oluvchiga umumiy yig'ilishda ovoz berish uchun yoki uning ko'rsatmalariga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish uchun ishonchnoma berishi kerak.

41. Bank aksiyadorlari o'rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzishligi mumkin.

4-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

42. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda Bank Kuzatuv kengashi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa, umumiy yig'ilishni chaqiruvchi shaxslar quyidagilarni belgilaydi:

umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini;

umumiy yig'ilishning kun tartibini;

umumiy yig'ilish o'tkazish uchun Bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sanani;

umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish tartibini;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxatini;

ovoz berish byulletenining shakli va matnini;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibini.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 10 (o'n) kundan kam va 30 (o'ttiz) kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

5-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi axborot

43. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 21 (yigirma bir) kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida habar berish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan elektron pochталari orqali yuboriladi.

44. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

Bankning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

Bank aksiyadorlarining reyestri shakllantiriladigan sana;

umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;

umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

45. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Bankning yillik hisoboti, Bankning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining xulosasi, Bank Kuzatuv kengashining Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi, shuningdek Bankning Kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Bankning Ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi, Kuzatuv kengashining umumiy yig'ilish kun tartibidagi masala bo'yicha pozitsiyasi va kun tartibi yuzasidan boshqa zarur ma'lumotlar kiradi.

46. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborotning (materiallarning) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

Agar Bank aksiyadorlari reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxs aksiyalarning nominal saqlovchisi bo'lsa, umumiy yig'ilishni o'tkazish to'g'risidagi habar aksiyalarning nominal saqlovchisiga yuboriladi. Aksiyalarning nominal saqlovchisi uni o'z mijozlariga qonunchilik hujjatlarida yoki mijoz bilan tuzilgan shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda yetkazishi shart.

6-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining kun tartibiga takliflar

47. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bankning moliya yili tugaganidan keyin 90 (to'qson) kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Bank Kuzatuv kengashiga uning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

48. Aksiyadorlar (aksiyador) Bank Kuzatuv kengashiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

49. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

50. Bank Kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod Bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

51. Bankning Kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda ushbu Nizomning 47 va 48-bandlarida belgilangan muddat tugaganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay ularni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart.

52. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Bankning Kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

ushbu Nizomning 47-bandida belgilangan muddatga aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo'lsa;

aksiyadorlar (aksiyador) Bankning ushbu Nizomning 47-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

ushbu Nizomning 49-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

takliflar ushbu Nizom, Bank Ustavi va qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmasa.

53. Bank Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank Kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

54. Bank Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bank Kuzatuv kengashiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

7-bob. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi

55. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra quyidagilar asosida o'tkaziladi:

uning o'z tashabbusi;

taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi;

Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq Markaziy bank talabi.

56. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

57. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar, ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak.

58. Bankning Kuzatuv kengashi Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning ta'rifiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

59. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda

umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

60. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

61. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran 10 (o'n) kun ichida Bank Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

62. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) ushbu Nizomning 55-bandida nazarda tutilgan miqdordagi Bank ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa;

kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala amaldagi qonunchilik, Bank Ustavi va ushbu Nizom talablariga muvofiq bo'lmasa.

63. Bank Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

64. Bank Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

65. Bank Kuzatuv kengashi qonunchilikda belgilangan muddat ichida aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'zni Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Bankning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

66. Bank Kuzatuv kengashining vakolatini muddatidan oldin to'xtatish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishda aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi mazkur Nizom, Bank Ustavi va qonunchilikda belgilangan tartibda chaqiriladi.

8-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kvorumi

67. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar

(ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

68. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

69. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 (qirq) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

70. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish qonunchilikda nazarda tutilgan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

71. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

9-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlari

72. Quyidagilar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ishchi organlari xisoblanadi:

rayosat (prezidium) yoki yig'ilish raisi;

sanoq komissiyasi;

yig'ilish kotibi (kotibiyati).

73. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining rayosati (prezidiumi) va uning raisi yoki yig'ilish raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi.

74. Yig'ilish raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishga va agar tuzilgan taqdirda yig'ilish rayosatiga (prezidiumiga) boshchilik qiladi, yig'ilish olib borilishini taminlaydi va buning uchun u o'z vazifalarini to'liq bajarilishi uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlarga ega bo'ladi.

75. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining audio-video yozuvi va internet tarmog'idagi translyatsiyasiga ruxsat berish masalasini yig'ilish raisi hal qiladi.

76. Yig'ilish raisi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining borishiga rahbarlik qiladi, umumiy yig'ilish ishchi organlari ishini muvofiqlashtiradi, yig'ilishni belgilangan reglament doirasida o'tishini ta'minlaydi, yig'ilishni olib borish va ovoz berish davomida tushuntirishlar beradi, yig'ilishda tartib o'rnatilishini nazorat qiladi.

77. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Bank Kuzatuv kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

78. Sanoq komissiyasining tarkibi 3 (uch) kishidan iborat bo'ladi. Sanoq komissiyasi tarkibiga Bank Kuzatuv kengashining a'zolari, Bank Boshqaruv raisi,

Boshqaruv a'zolari, shuningdek ana shu lavozimlarga nomzodi ko'rsatilgan shaxslar kirishi mumkin emas.

Sanoq komissiyasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, ovoz berish byulletenlarini Bankning arxiviga topshiradi.

79. Sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlar (investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) mazkur Nizomda va qonunchilikda belgilangan tartibda jalb etilishi mumkin.

80. Sanoq komissiyasi vakolatlarining muddati u Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan kundan boshlab Aksiyadorlarning tegishli (yillik yoki navbatdan tashqari) umumiy yig'ilishi tomonidan sanoq komissiyasining yangi tarkibini saylash (yoki qayta saylash) kungacha hisoblanadi.

81. Yig'ilish kotibi (kotibiyati) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi to'g'ri va qonunchilikda belgilangan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilishini ta'minlaydi.

82. Yig'ilish kotibi (kotibiyati):

umumiy yig'ilishning borishini bayonnomaga qayd etib boradi;

yozma buyurtmalar bo'yicha yig'ilish kun tartibi masalalarini muhokama qilishda qatnashish istagini bildiruvchilar ro'yxatini tuzadi;

umumiy yig'ilish bayonnomasini tuzadi.

10-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi

83. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ovoz berish "Bankning ovoz beruvchi bitta aksiyasi – bitta ovoz" prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlari soni Bankning Kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga alohida ko'paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

84. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi.

85. Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

86. Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan mazkur Nizomning 85-bandida ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lmaydi.

87. Ovoz berishda ishtirok etgan aksiyadorning talabiga asosan o'zi to'ldirgan ovoz berish byulletenidan nusxa berilishi mumkin.

11-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibi

88. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibi har bir umumiy yig'ilishda mazkur Nizomga muvofiq tasdiqlanadi.

89. Yig'ilish raisi umumiy yig'ilishning sanoq komissiyasini, rayosatini (prezidiumini) va kotibini (kotibiyatini) saylashni taklif etadi.

90. Aksiyadorlar tashabbusiga ko'ra chaqirilgan umumiy yig'ilish rayosati tarkibini tasdiqlash qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

91. Umumiy yig'ilishni olib borish tartibi yig'ilishning boshlanishi va taxminan tamom bo'lish vaqtini, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ma'ruzalar vaqtini va tanaffuslarni, kun tartibi masalalarining izchilligini, kun tartibi masalalari bo'yicha ma'ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.

92. Muhokama qilinayotgan masala bo'yicha yig'ilish davomida paydo bo'ladigan joriy masalalarni aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bosh prinsipi: har bir qatnashchining belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish huquqidan foydalanishi mumkinligidan kelib chiqib, yig'ilish raisi yakkaboshchilik bilan hal etadi.

93. Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda qatnashish istagini bildirganlar yig'ilish kotibiga (kotibiyatiga) muhokama qilinadigan masalani ko'rsatgan holda buyurtma beradilar.

94. Kun tartibining barcha masalalari muhokama qilingandan keyin yig'ilish raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi.

12-bob. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasi

95. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay 2 (ikki) nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham Umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

96. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;

umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi (kotibiyati), yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

97. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.



98. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan Kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki Kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.

13-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarini bajarish

99. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarining bajarilishi Bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruv raisi hamda Boshqaruv a'zolari tomonidan ta'minlanadi.

100. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari bajarilishi ustidan nazorat, agar yig'ilish qarorida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa va bayonnomada qayd etilmagan bo'lsa, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

101. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari umumiy yig'ilishda xozir bo'lgan, shuningdek xozir bo'lmagan barcha aksiyadorlarga, ularga tegishli qismi bo'yicha bajarilish uchun majburiydir.

14-bob. Yakuniy qoidalar

102. Mazkur Nizom Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

103. Mazkur Nizomga Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

104. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan boshlab Bank Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2020-yil 27-martdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Bankning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom va unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

105. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan qoidalar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi.

106. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida, ushbu Nizomning ayrim bndlari unga zid bo'lib yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

107. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

